



## ORIENTAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojss>



### HISSAR COINS OF THE TIMURID PERIOD FROM THE “YANGI SANGANAK” HOARD DISCOVERED IN PARKENT

**Dilmurod Normurodov**

*Senior Research Fellow*

*at the State Museum of the History of the Timurids,  
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan*

*E-mail: [d.r.normurodov@gmail.com](mailto:d.r.normurodov@gmail.com)*

*Tashkent, Uzbekistan*

#### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Samarkand, Bukhara, Hisar, “Yangi Sanganak”, Timurids, Shaybanids, treasury, copper, coin, minting (struck), Hijri, Gregorian (Common Era).

**Received:** 04.10.25

**Accepted:** 05.10.25

**Published:** 06.10.25

**Abstract:** The article describes 12 coins of two types, minted in Hisar during the Timurid period, from the “Yangi Sanganak” hoard of copper coins. The hoard was discovered in the “Yangi Sanganak” neighborhood of the Parkent district, Tashkent region, and is kept in the State Museum of the History of the Timurids of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. It is noted that the obverse of the first type of coins bears the inscription “Zarb Hisar” (Struck in Hisar) in Arabic script, while the obverse of the second type bears the inscription “Zarb Hisari shodmon” (Struck in Prosperous Hisar). The reverse of both types of coins features an ornament in the shape of a plant leaf. It is recorded that some of the coins were overstruck. It is emphasized that the three types of overstriking on the coins were carried out during the Shaybanid period to eliminate the shortage of coins in trade and were put into circulation. It has been established that these coins were already in circulation in the Tashkent oasis at the time of their initial minting, and they were overstruck in Parkent for use in internal trade.

### PARKENTDAN TOPILGAN “YANGI SANGANIK” XAZINASIDAGI TEMURIYLAR DAVRIGA OID HISOR TANGALARI

**Dilmurod Normurodov**

*Katta ilmiy xodim*

*O’zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi*

E-mail: [d.r.normurodov@gmail.com](mailto:d.r.normurodov@gmail.com)  
Toshkent, O'zbekiston

## МАҚОЛА HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** Samarqand, Buxoro, Hisor, “Yangi Sanganak”, temuriylar, shayboniyalar, xazina, mis, tanga, zarb, hijriy, milodiy.

**Annotatsiya:** Maqolada Toshkent viloyati, Parkent tumani “Yangi Sanganak” mahallasidan topilgan va O‘zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyida saqlanayotgan “Yangi Sanganak” mis tangalar xazinasidagi temuriylar davrida Hisorda zARB qilingan 2 turga 12 dona tangalar tavsiflangan. Ularning 1-turdagilarining old tomoniga arab harflarida “zARB Hisor”, 2-turdagilarining esa old tomoniga “zARB Hisori shodmon” degan yozuv tushirilganligi, har ikkala turdagagi tangalarining orqa tomoniga esa o’simlik bargi shaklidagi bezak tushirilganligi, tangalardan ayrimlariga qayta zARB urilganligi qayd qilingan. Tangalardagi 3 turdagagi qayta zarblar shayboniyalar davrida savdo-sotiqdagi tanga-pul taqchilligini bartaraf etish uchun urilib, muomalada ishlatilganligi ta’kidlangan Bu tangalar ishlab chiqarilgan paytdayoq Toshkent vohasida ham muomalada bo‘lganligi, ularga Parkentda qayta zARB urilib, ichki savdo-sotiqlar uchun ishlatilganligi aniqlangan.

### ХИСОРСКИЕ МОНЕТЫ ЭПОХИ ТЕМУРИДОВ ИЗ «ЯНГИ САГАНАКСКОГО» КЛАДА, НАЙДЕННОГО В ПАРКЕНТЕ

**Дилмурод Нормуродов**  
Старший научный сотрудник  
Государственный музей истории Темуридов  
Академии наук Республики Узбекистан  
E-mail: [d.r.normurodov@gmail.com](mailto:d.r.normurodov@gmail.com)  
Ташкент, Узбекистан

## О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Самарканд, Бухара, Хисар, “Янги Санганак”, Темуриды, Шайбаниды, казна, медь, монета, чеканка, хиджри, григорианский календарь.

**Аннотация:** В статье описаны 12 монет двух типов, отчеканенных в Гиссаре в период Тимуридов, из клада медных монет «Янги Санганак», обнаруженного в махалле «Янги Санганак» Паркентского района Ташкентской области и хранящегося в Государственном музее истории Тимуридов АН РУз. Отмечено, что на лицевой стороне монет первого типа арабской вязью выбита надпись «чекан Хисара», а на монетах второго типа — «чекан Гиссари шадмана». На оборотной стороне монет обоих типов имеется изображение орнамента в форме листа растения. Зафиксировано, что

некоторые из монет были подвергнуты перечеканке. Подчеркивается, что три вида перечеканок на монетах были осуществлены в период Шейбанидов для устранения нехватки монет в торговом обращении и использовались в обороте. Установлено, что эти монеты находились в обращении в Ташкентском оазисе уже в момент их выпуска, а в Паркенте они были перечеканены и использовались для внутренней торговли.

**Kirish.** Moddiy topilmalar orasida tangalar xazinalar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular nafaqat muayyan davrning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, balki aholining madaniy-ma’naviy qarashlari haqida ham qimmatli ma’lumotlar beradi. Shu nuqtayi nazardan 2021-yilda Toshkent viloyati Parkent tumani “Yangi Sanganak” mahallasida yashovchi I.Baymakovning hovlisida issiqxonada tashkil qilish uchun yer qazish ishlari paytida topilgan va hozirda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Temuriylar tarixi davlat muzeyi fondida saqlanayotgan mis tangalar xazinasi orasidagi temuriylar davrida Hisorda zarb qilingan tangalar mavjudligi bilan e’tiborga molikdir. Temuriylar davrida Hisor tog‘ tizmasining janubi-sharqida, hozirda O‘zbekistonning Surxondaryo viloyatini katta qismi, Tojikistonning Hisor tumani va uning atroflarigacha bo‘lgan hududlarni o‘z ichiga vodiyyda Hisor viloyati bo‘lgan. Uning markazi esa Hisor shahri bo‘lgan. Temuriylar keyin ya’ni, shayboniylar davrida bu viloyat hududi kengayib, Qunduz, Termiz, Xuttalon, Ko‘badiyon va Badaxshon kabi hududlar Hisorda turgan boshqaruvchi shaxs tomonidan nazoratda tutib turilgan.

“Yangi Sanganak” xazinasidagi Hisor tangalari temuriylar davlatidagi hududiy-hokimiylar tuzilmalar, ularning savdo-iqtisodiy aloqalari va pul muomalasi taraqqiyotini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Temuriylar davriga oid Hisor tangalari o‘zining o‘ziga xos tasvirlari, yozuvlari va yasalishi bilan ajralib turadi. Ularning tadqiqi nafaqat tangashunoslik jihatdan, balki siyosiy va madaniy jarayonlarni yoritishda ham katta ahamiyatga ega. Yangi Sanganak xazinasidagi ushbu tangalar orqali Hisor viloyatining temuriylar davridagi nufuzi hamda mintaqadagi iqtisodiy jarayonlar haqida kengroq tasavvur hosil qilish mumkin. Shu bois, “Yangi Sanganak” xazinasida uchraydigan Hisor ishlab chiqarilgan tangalarini ilmiy jihatdan tahlil etish, tavsiflash, ularning turlari va xususiyatlari, shuningdek, mintaqaning umumiy tanga ishlab chiqarish madaniyatini yoritish dolzarbdir.

#### O‘rganilish tarixi

Hozirda O‘zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi fondida saqlanayotgan, jami 1810 dona mis tangalardan iborat bo‘lgan “Yangi Sanganak” xazinasidagi 655 dona tangada Samarqandda

(Нормуродов Д.Р. 2024., – Б. 79–92), 364 dona tangada Buxoroda (Нормуродов Д.Р., 2024, – Б. 64–73), 5 dona tanga Shosh (Toshkent)da (Normurodov D., 2025., – Б. 323–327), 34 dona tanga Andijonda (Normurodov D., 2025. – Б. 8–18) zarb qilinganligi, ularning XV–XVI asrda zarb qilinganligi aniqlandi. Keyingi payida “Yangi Sanganak” xazinasidagi qolgan tangalar ustida o‘tkazilgan o‘rganish ishlari natijasida 12 dona Hisorda zarb qilingan tangalarning mavjudligini aniqlashning imkonи bo‘ldi. Shuningdek, bu tangalardan ayrimlariga XVI asrda qayta zarb urilganligi va yana qayta savdo-sotiq ishlarini amalga oshirish uchun foydalanilganligini aniqlashga muvofiq bo‘lindi. Xazinadagi ushbu ushbu Hisor tangalari ilk bor ilmiy muomalaga tortilmoqda.

Temuriylar hukmronligi davrida Hisorda zarb qilingan va muomalada bo‘lgan tangalar hozirgi O‘zbekiston, Tojikiston va Qирг‘из Respublikalaridagi bir qancha shahar va qishloqlaridan topilgan. Ularni o‘rganishda Y.A.Davidovich, L.Y.Shpenyova, D.Dovutov, A.M.Kamishev, R.Z.Burnasheva kabi tangashunoslarning xizmatlari katta. Jumladan, Y.A.Davidovich XV – XVI asrlardagi temuriylar va shayboniyalar davri tanga-pul muomalasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida Hisor tangalarining turi va variantlarini birinchilardan bo‘lib aniqlashga harakat qilgan. Natijada, ularning 14 tur mavjudligini qayd qilgan (Давидович Е.А., 1977. – С. 83–86). A.M.Kamishev hozirgi Qирг‘из Respublikasi, Jalolobod viloyati Changit qishlog‘idan topilgan xazinada 2 turdagи, Aksu tumanidan topilgan xazinada 3 turdagи, Botken viloyati Laylak tumanidan topilgan xazinada 7 turdagи tangalar XV–XVI asr boshlarida Hisorda zarb qilinganligi aniqlangan (Камышев А.М., 2013. – С. 23, 38, 53). Jumladan, Changit qishlog‘idan topilgan xazinadagi tangalar orasida tangalardan Y.A.Davidovich tadqiqotida keltirilmagan, romb shaklidagi hoshiyalangan tanganing mavjudligini aniqlagan (Камышев А.М., 2013. – С. 23). D.Dovudov Tojikistonning turli tumanidan topilgan tangalar xazinasi orasidagi XV– XVI asrlarga oid Hisor tangalariga ham tavsif berilgan (Давлатходжа Довуди., 2009. – 408 стр.; Давлатходжа Довуди., 2014. – С. 84, 92–96). R.Z.Burnasheva Janubiy Qozog‘istondan topilgan Hisor tangalarini ilmiy muomalaga kiritdi (Бурнашева Р.З., 2006. – С. 18).

Olib borilgan tadqiqotlar tahlili “Yangi Sanganak” xazinasida uchraydigan tangalar umumiyl tangalar tizimning bir qismi bo‘lganligini, ular orqali mintaqadagi siyosiy-iqtisodiy munosabatlarni o‘rganish mumkinligini ko‘rsatadi. Temuriylar davrida oid Hisor tangalari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar Yangi Sanganak xazinasidagi Hisor tangalari bilan ilmiy taqqoslash imkonini beradi. Xususan, “Yangi Sanganak” xazinasidagi Hisor nomi tushirilgan tangalarning temuriylar va shayboniyalar davrida zarb qilingan tangalar bilan bir xazinadaligi ularning ushbu davrga tegishliligini aytishga shubha qoldirmaydi.

**Asosiy qism.** I. “Yangi Sanganak” xazinasidagi Hisorda zerb qilingan tangalarning turlari.

“Yangi Sanganak” mis tangalar xazinasidagi Hisorda zerb qilingan tangalarning har ikkala tomoni ham zerb urish yo‘li bilan bo‘rtma ko‘rinishdagi bezak va yozuvlar tushirilgan. Ammo, birorta tangada tushirilgan bunday shakllar va yozuvlar to‘liq tushmagan. Bundan tashqari, tangalarga tushirilgan bezak va yozuvlarning bir qismi oksidlanish natijasida tekislanib ketgan. Shu sababli ularni aniqlashda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Umumiy tangalardagi yozuvlarni tiklash orqaligini ularni tadqiqotlarda aniqlangan o‘xshashlari asosidagi zerb qilingan yillarini aniqlash mumkin. Shuningdek, tangalarning o‘lcham va og‘irliklari ham bir-biridan oz bo‘lsa-da farq qiladi. Bezak va yozuvlarining o‘ziga xos ko‘rinishiga, yozuvlarining atrofi hoshiyalanishga ko‘ra ularni 2 turga ajratish mumkin. Bu tangalarning har bir turi quyidagicha tavsifga ega:

1-turi. Bu turdagagi tangalar 2 dona bo‘lib, ulardan birining diametri – 21–24 mm, og‘irligi – 4,27 gr.dan (1-rasm, № 1 va 1-jadval, № 1), ikkinchisining esa diametri – 22–24 mm, og‘irligi – 4,81 gr.dan iborat (1-rasm, № 2 va 1-jadval. № 2).

Old tomoni: Yuzasining o‘rta qismida bargsimon bezak bilan o‘ralgan kvadrat shakldagi hoshiyasi bor. Hoshiya ichiga arab yozuvida “zarb / Hisor ضرب / حصار” degan yozuvi tushirilgan.

Orqa tomoni: Bargli o‘simlikning tarsviri tushirilgan.

2-turi. Bu turdagagi tangalar 10 dona bo‘lib, ularning o‘rtacha diametri – 20–24 mm oralig‘ini, og‘irligi esa – 4,1 gr.dan – 4,86 gr.gachani tashkil qiladi (1-rasm, № 3–10 va 1-jadval, 3–12).

Old tomoni: cheti nuqtachalar va halqa bilan o‘ralgan. O‘rta qismida atrofi navdagiga o‘simlik bargi shaklidagi bezak bilan o‘ralgan kvadratsimon hoshiya ichiga “Zarb/Hisor/ shodmon ضرب/حصار/شادمان” yozuvi tushirilgan.

Orqa tomoni: gajak shakldagi novdada barglari bo‘lgan o‘simliksimon bezak tushirilgan.

II. “Yangi Sanganak” xazinasining Hisorda zerb qilingan tangalardagi qayta zarblari:

“Yangi Sanganak” xazinasidagi Hisorda zerb qilingan 12 tangaga jami – 11 marta qayta zerb urilgan. Ulardan 6 tasi tangalarning oldi tomoniga (1-rasm. № 4, 8, 9, 10, 11, 12), 4 tasi esa tangalarning orqa tomoniga urilgan (1-rasm. № 4, 6, 7, 12). Tangalardagi qayta zarblar uch turda bo‘lib, ular quyidagicha tavsifga ega:

1-uchburchak hoshiyali bo‘lib, uning ichida arabcha “k (k – kaf, balka d – dol)” harifigina ko‘rinadi. Bunday qayta zerb birgina tanganing oldi tomonida bor (1-rasm. № 4).

2-ikki yoni yarim oval shaklida kengaygan, tepa va pasti tekis bo‘lgan hoshiya ichiga arab harflarida “Parkad” degan yozuv tushirilgan. Bunday qayta zerb ikkita tangaga tushirilgan bo‘lib,

ulardan biri tanganing oldi tomoniga (1-rasm. № 8), ikkinchisi esa orqa tomoniga tushirilgan (1-rasm. № 4).

3-uch tomonga kengaygan yaproqsimon hoshiya ichiga arab harflaridagi “adl /... (العدل/...)” yozuvi tushirilgan. Qolgan yozuvlari yaxshi tushmagani yoki o‘chib ketganligi sababli ularni anqlash qiyin. Bunday qayta zarb jami beshta tangaga tushirilgan bo‘lib, ulardan biri tanganing oldi tomoniga (1-rasm. № 10), qolgan to‘rttasi esa orqa tomoniga tushirilgan (1-rasm. № 6, 8, 7, 12).

Yuqorida kelirilgan 8 ta qayta zardban tashqari tangalarda tushirilgan 3 ta qayta zarbning turini aniqlashning hozircha imkonи bo‘lmadi.

Yuqorida qayd qilinganidek, Xisor tangalarining har ikkala turida ham ularning zarb qilingan yili tushirilmagan. Tangashunos A.M.Kamisheva Qирғиз Республикаси Jalolobod viloyati Changit qishlog‘idan torilgan tangalar hazinasidagi Yangi Sanganak xazinasidagi Hisor tangalarning tangalari ularni XV asr va XVI asrning boshlarida ishlab chqarilganligini ko‘rsatmoqda. Xususan, 1-turlagi tangaga o‘xshash tangalarning shayboniyxonning pul islohotini o‘tkazishiga qadar ya’ni, hijriy 907 (milodiy 1501) yilgacha zarb qilinganligini aniqlagan (Kamisheva A.M., 2013. – S. 23). Ye.A.Davidovichning tadqiqotlarda bu tangalarga aynan o‘xshash tangalar bo‘lsa-da, tangalardagi yozuvlarning tushirilishi jihatidan temuriylar davrida Hisorda zerb qilingan tangalarga juda yaqin o‘xshashligini kuzatish mumkin (Davidovich Ye. A., 1983. – S. 303). Tojikiston Respublikasining Dushanbe shahridan topilgan 15-asrga ya’ni, temuriylar davriga oid 1040 danadan iborat tangalar xazinasidagi tangalar orasida esa Yangi Sanganak hazinasidagi Hisor tangalarining 2-turdagilariga aynan o‘xshashlari bor. Ye.A.Davidovich tomonidan Dushanbedan topilgan bu tangalarning temuriylar darvriga oidligi aniqlangan (Davidovich Ye.A., 1983. – S. 303, 453. – Fototablitsa 17. – №10). Ularda zerb qilingan yili tushirilmagan bo‘lsa-da, bu tangalarning temuriylar davrida Buxoro, Andijon, Qarshi, Samarqand, Termez, Shohruxiya shaharlarida zerb qilingan tangalar bilan bir hazinada topilgan. Bu “Yangi Sanganak” xazinasidagi Hisor tangalarining 2-turdagilari ham temuriylar davriga oidligini yanada tasqiqlaydi.

“Yangi Sanganak” xazinasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, undagi tangalar tarkibining ma’lum qismi Hisor shahrida zerb etilgan namunadan iborat. Bu tangalar misdan tayyorlangan bo‘lib, ulardagи yozuv va tasvirlar Hisor sulolalari hokimiyatini ifoda etadi. Tangalarning na hukmdor nomi va na ularning zerb qilingan yili o‘z aksini topmagan. Shunga qaramay xazina tarkibini o‘rganish Hisor tangalari mintaqadagi pul muomalasida muhim o‘rin tutganligini aytish mumkin. Ular Markaziy Osiyoning boshqa hududlari bilan iqtisodiy aloqalarni ta’minlashda ishtirok etgan. Tangalarning tarqalish geografiyasi Hisor hokimligining iqtisodiy va savdo

aloqalari kengligini ko'rsatadi. "Yangi Sanganak" xazinasidan chiqqan tangalar boshqa arxeologik topilmalar bilan taqqoslanganda, ularning temuriylar davri siyosiy va iqtisodiy jarayonlari bilan uzviy bog'liqligi aniqlandi. Natijada, ushbu xazina nafaqat Hisor tangalarining xususiyatlarini o'rganishda, balki butun Markaziy Osiyodagi numizmatik jarayonlarni chuqr anglashda ham muhim manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

Xazinadagi Hisor tangalariga tushirilgan qayta zarblarda ularning urilgan yili tushirilmagan. Shu sababli ulardagi qayta zarblar qachon urilganligini aytish qiyin. Tushirilgan qayta zarblardan ma'lum bo'ladiki, "Yangi Sanganak" xazinasidagi tadqiqotga tortilgan tangalarga uch turdag'i: 1-uch tomonga kengaygan yaproqsimon, 2-ikki yoni yarim oval shaklida kengaygan, tepa va pasti tekis bo'lgan, 3-uchburchak shakldagi hoshiyali qayta zarblar urilgan. Yozuvlariga qaraganda ulardan biri Parkent zarbxonasida qayta zARB qilingan. Bu qayta zarblarining tadqiqotlarda 16-asrda urilganligi qayd qilingan. Shunga asoslanib, yuqorida qayd qilingan qayta zarblarni ushbu asrda urilganligini aytish mumkin.

**Xulosa.** "Yangi Sanganak" mis tangalar xazinasidagi og'irligi – 4,1–4,86 gr, diametri – 21–24 mm bo'lgan, Hisorda zARB qilingan tangalar 2 turdan iborat bo'lib, ularning gtemuriylar temuriylar davrida ishlab chiqarilgan. Bu tangalar shayboniylar davridagi pul islohotida qayta zARB urilgan va ma'lum muddat savdo-sotiqda ishlatilgan. Bu tangalar temuriylar va shayboniylar sulolalarining tanga-pul siyosati bo'yicha ma'lumotlar doirasining kengayishiga yordam beradi. Bundan tashqari, tangalardagi bezaklar, ayniqsa, o'simlik barglari bilan bezalganligi qiziqarli bo'lib, bu o'sha davrda davlatchilik boshqaruvida hukmron doiralarning o'simlik olamini qadrlaganliklaridan dalolat beradi. Shuningdek, mazkur tangalarning Toshkent vohasi ham keng muomalada bo'lganligini, keyin ularga qayta zARB urilib yana muomalaga kiritilgan.

Xullas, Hisor tangalari mahalliy hudud bilan cheklanib qolmagan, balki keng savdo-iqtisodiy aloqalarda ishtirok etgan. Ularning tarqalish geografiyasi hokimlikning iqtisodiy faolligi hamda mintaqaviy integratsiya jarayonlarini yaqqol aks ettiradi. "Yangi Sanganak" xazinasi nafaqat numizmatik jihatdan, balki siyosiy va iqtisodiy tarixni chuqurroq yoritishda ham qimmatli manba sifatida ahamiyatga ega. Ushbu topilma asosida kelgusidagi tadqiqotlarda olib borish orqali Hisor hokimligi tangashunosligini yanada atroflicha o'rganish imkon yaratiladi. Ushbu topilmalar kelgusidagi tadqiqotlarda manba sifatida qo'llanilish, ular qayta o'rganilishi XV asr oxiridagi boshboshdoqliklar davrida tanga zARB qildirgan temuriy hukmdorlarni yoki mahalliy boshqaruv vakillarini aniqlashga imkon topilishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Normurodov D. “Yangi Sanganak” xazinasidagi XV asrning oxiriga oid Shosh tangalari // Temuriylar renessansi: tarix, tadqiqotlar va muammolar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2025. – B. 323–327.
2. Normurodov D. XV – XVI asrlarga oid “Yangi Sanganak” xazinasining Andijon tangalari // Sharq tarixi, siyosati va huquq. – Toshkent, 2025. – № 5(08). – B. 8–18.
3. Бурнашева Р.З. Денежное обращение в городах Южного Казахстана в XV–XVIII вв. (Историко-нумизматическое исследование). – Туркестан, 2006. – 255 стр.
4. Давидович Е. А. История денежного обращения средневековой Средней Азии (медные монеты XV – первой четверти XVI в. в Мавераннахре). – Москва: Наука, 1983. – 360 стр.
5. Давлатходжа Довуди. Древние и средневековые монеты Дангары. – Душанбе: ЭР-граф, 2014. – 120 стр.
6. Давлатходжа Довуди. Монетные клады Таджикистана – Душанбе: Дониш, 2009. – 408 стр.
7. Камышев А. М. Клады медных монет Тимуридов и Шейбанидов. – Самарканд, 2013. – 176 стр.
8. Нормуродов Д. Р. XV–XVI асрнинг бошларига оид “Янги Санганак” хазинасидаги Бухоро тангаларига доир // Tarixiy tadqiqotlar. – Toshkent, 2024. – № 3 (5). – B. 64–73.
9. Нормуродов Д. Р. XV–XVI асрнинг бошларига оид “Янги Санганак” хазинасидаги Самарқанд тангалари хусусида // Tarixiy tadqiqotlar. – Toshkent, 2024. – № 2. – B. 79–92.



					
3		7		11	
					
4		8		12	
<b>1-rasm.</b> Toshkent viloyati Parkent tumani “Yangi Sanganak” mahallasidan topilgan “Yangi Sanganak” xazinasidagi Hisor tangalar. 1–2- “zarb / Hisor” ضرب / حصار(yozuvli tangalar; 3–12–“Zarb/Hisor/ shodmon” ضرب/حصار/شادمات) يوزувли tangalar.					

Nº	Og‘irligi – vazni (gr)	Diametri (mm)	Nº	Og‘irligi – vazni (gr)	Diametri (mm)
1	4,27	21–24	7	4,49	22–23
2	4,81	22–24	8	4,61	22–24
3	4,1	20–22	9	4,63	24
4	4,18	23–24	10	4,84	21–22
5	4,21	22–23	11	4,44	22–24
6	4,86	22–23	12	4,24	24

**1-jadval.** Toshkent viloyati Parkent tumani “Yangi Sanganak” mahallasidan topilgan “Yangi Sanganak” xazinasidagi Hisor tangalarining o‘lchamlari (og‘irligi – vazni va diametri).